
"Ayollar daftari"da turgan xotin-qizlarga reabilitatsiya vositalari tarqatildi
Shahrimizdagi oilaviy poliklinika shifokorlari va xotin-qizlar faollari ishtirokida xonadonlarda xatlov o'tkazilib, reabilitatsiya vositalariga zaruriyati bo'lganlarning manzilli ro'yxati tuzilgan edi. Mustaqilligimizning 32 yilligi bayrami arafasida shahar hokimligi tomonidan zaruriy vositalar ajratilib, fuqarolarga yetkazilmoqda.

Farg'ona shahar hokimligida 7 nafar xotin-qizlarga eshitish moslamalari topshirildi. Tadbir avvalida mas'ul rahbarlar yig'ilganlarni yaqinlashib kelayotgan eng ulug' va eng aziz ayyom bilan muborakbod etdilar.

Reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlangan fuqarolar inson qadri ulug'lanayotgan Yurtda yashayotganliklaridan mamnunliklarini ta'kidlashdi. Berilayotgan e'tibor uchun Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi

2023-09-07 08:38:21